



PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL PERFECTION AND ENLIGHTENMENT IDEAS IN BUDDHIST TEACHING

Umida Xolova

Researcher at Bukhara State University

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: human thought, enlightenment, spiritual perfection, moral values, truth, progress, global thinking, social, change, stratification.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: The philosophy of the ancient world represents one of the most important stages in the formation and development of human thought and serves as the initial phase in the emergence of enlightenment ideas. In the philosophy of the Ancient East, the ideas of enlightenment were formed in close connection with deep philosophical, religious, and ethical foundations. This article explores the role of Buddhist teachings in the development of spiritual perfection and enlightenment, emphasizing the importance of understanding the spiritual heritage of the East and providing a philosophical analysis of the historical roots of enlightenment ideas.

BUDDAVIYLIK TA'LIMOTIDA RUHIY KAMOLOT VA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARINING RIVOJLANISH FALSAFIY ASOSLARI

Umida Xolova

BuxDU tadqiqotchisi

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: inson tafakkuri, ma'rifatparvarlik, ruhiy kamolot, axloqiy qadriyat, haqiqat, taraqqiyot, global tafakkur, ijtimoiy, o'zgarish, tabaqalanish.

Annatsiya: Qadimgi dunyo falsafasi inson tafakkuri shakllanish va rivojlanishida muhim bosqichlaridan biri bo'lib, ma'rifatparvarlik g'oyalari shakllanishida ilk bosqich sifatida muhim ahamiyatga ega. Qadimgi Sharq falsafasida ma'rifatparvarlik g'oyalari chuqur falsafiy, diniy va axloqiy asoslar bilan uyg'unlashgan holda shakllangan. Mazkur maqolada Buddaviylik ta'limotining ruhiy kamolot va

ma'rifatparvarlik shakllanishdagi o'rni
hamda Sharq ma'naviy merosini chuqur
anglash, ma'rifat g'oyalarining tarixiy
ildizlarini falsafiy jihatdan asoslab beriladi.

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИДЕЙ ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА В БУДДИЙСКОМ УЧЕНИИ

Умида Холова

Исследователь БухГУ

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: человеческое мышление, просвещение, духовное совершенствование, моральные ценности, истина, прогресс, глобальное мышление, социальные, изменения, стратификация.

Аннотация: Философия древнего мира является одним из важнейших этапов в формировании и развитии человеческого мышления и служит начальной ступенью в возникновении идей просвещения. В философии Древнего Востока идеи просвещения формировались в тесной связи с глубокими философскими, религиозными и этическими основами. В данной статье рассматривается роль буддийского учения в становлении духовного совершенствования и просветительства, подчёркивается значение глубокого понимания духовного наследия Востока и даётся философское обоснование исторических корней идей просвещения.

Kirish. Ma'rifat davri bugungi kunda ham maxsus falsafiy etos sifatida, bizning o'zimiz (tarixan shakllangan mavjudot sifatida) va bizni o'rab turgan dunyo haqida tanqidiy savol berish usuli sifatida dolzarbdir. Ushbu davr g'oyalariga bo'lgan qiziqish, birinchi navbatda, uning asosiy faoliyat olib borgan ingliz va fransuz mutafakkirlari merosida jamlangan. Demak, ma'rifatparvarlik g'oyalari, ma'rifat davri qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi, shuning bilan birga Sharq ma'rifatparvarligi va G'arb ma'rifatparvarligida ma'rifat bosqichlari, g'oyalari hamda yo'nalishlari turlicha tahlil qilinadi. Xususan, biz Sharq va G'arb ma'rifatparvarligini qiyosiy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, ma'rifat shakllanishining dastlabki asosiy poydevori buddaviylik falsafiy ta'limoti bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'ramiz.

Mavzuning dolzarbligi. Sharq falsafasida shakllangan ma'rifatparvarlik g'oyalari faqatgina ilm bilan cheklanmagan, balki axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali ruhiy jihatdan komilikka erishish vositasi sifatida talqin qilingan. Sharq falsafasidagi ma'rifatparvarlik an'analari bugungi global tafakkur taraqqiyotida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bundan tashqari, ushbu tamoyillar sharqona tafakkur taraqqiyotida,

xususan, buddaviylik ta'limotida ham o'ziga xos usulda namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyoda qadimiy davrlardan buyon Sharq va G'arbni bog'lovchi geosiyosiy hudud o'laroq, turli diniy va falsafiy oqimlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Siddhartha Gautama Hindistonda chuqur ijtimoiy o'zgarishlar kechayotgan davrda yashagan. O'sha paytda Vedalar diniy an'anasining obro'-e'tibori qator yangi diniy va falsafiy qarashlar tomonidan shubha ostiga olinayotgan edi. Vedalar dini taxminan ming yil avval ko'chmanchi jamiyat tomonidan shakllantirilgan bo'lib, asta-sekin Shimoliy Hindistonning katta qismida, xususan, Gang daryosi havzasida hukmronlik qila boshladi. Miloddan avvalgi V asrga kelib, jamiyat endi ko'chmanchi bo'lmay qolgan, agrar xo'jalikka asoslangan aholi manzilgohlari eski ko'chmanchi karvonlarni siqib chiqargan va avval qishloqlarga, so'ngra shaharchalarga, keyinchalik esa yirik shaharlar sari taraqqiy etgan edi. Shu yangi urbanizatsiyalashgan va ijtimoiy kontekstdagi sharoitda hind jamiyatining ko'plab qatlamlari endilikda Vedalar dinidan qoniqmay qo'ygan edilar. Siddhartha Gautama ham Vedalar diniy tizimini tanqid qilgan ko'plab mutafakkirlar qatorida edi. Buddaviylikning keng tarqalishiga bir qancha ijtimoiy – madaniy omillar sabab bo'lgan. Xususan:

1. Buddaviylik dinidagi egalitarizm g'oyasi – kastachilikni rad etgan holda, har jihatdan insonlarning teng ekanliklari haqidagi g'oya. Asosan hinduviylikda mavjud bo'lgan kastalar tizimi jamiyatda, ijtimoiy hayotda tengsizlikni keltirib chiqarargan. Aholining quyi qatlami ham ma'lum bir erkinliklarga ega bo'lishni xohlar edi. Asosan hinduviylikda mavjud bo'lgan kastalar tizimi jamiyatda, ijtimoiy hayotda tengsizlikni keltirib chiqarargan. Aholining quyi qatlami ham ma'lum bir erkinliklarga ega bo'lishni xohlar edi. Ayni shu sababdan buddaviylik yuzaga keldi. Buddaviylida kasta-varna tizimi mavjud emas. Ular vedalarni inkor etishlariga qaramay, hinduviylikdagi bir qancha xususiyatlarni qabul qilgan. Umuman olganda, buddaviylik erkinlik berish xususiyati bilan o'z davrida ajralib turgan.

2. Buddaviylikning keng yoyilishida – davlat hukmdorlarining homiyligi muhim rol o'ynadi. Xususan mil.avv. III asrda Ashoka buddaviylikni davlat mafkurasi sifatida qo'llab quvvatladi. Bu davrda buddaviylikning kirib kelishi mahalliy xalqlar madaniyati va diniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, milodiy I asrda Markaziy Osiyo hududida hukmronlik qilgan Kushonlar davlati buddaviylikni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Kanishka (taxminan milodiy 78–123 yillar) Kushonlar imperiyasining eng qudratli hukmdorlaridan biri bo'lib, uning davrida buddaviylik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan va rivojlantirilgan. Kanishka o'z imperiyasini Hindistonning shimoliy hududlariga, shu jumladan Gandxara va Kashmir viloyatlariga kengaytirdi. Bu hududlarda buddaviylik allaqachon mavjud bo'lgan bo'lsa-da, Kanishkaning himoyasi tufayli din yanada yuksalib, keng ommaga tarqalgan.

Kanishka buddaviylikni kuchli qo'llabquvvatlagan va bu dinning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U Gandxarada Buddaviylik Kengashini chaqirgan, bu kengashda buddaviylik ta'limotlari muhokama qilinib, tartibga keltirilgan.

3. Buddaviylikning keng yoyilishida – Buyuk Ipak yo'li hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Buyuk Ipak yo'li buddaviylikni mintaqaviy doiradan chiqarib, umumjahon diniy – falsafiy oqim darajasiga ko'targan strategik yo'l vazifasini bajardi.

Tadqiqotni amalga oshirish. Markaziy Osiyoda Buddaviylik tarixi turli hududlarning siyosiy tarixi va keyingi davrlarda bu yerlarda hukmronlik qilgan siyosiy kuchlar — xitoylar, tibetliklar va uyg'urlar tarixi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Monumental yodgorliklar, shuningdek Xitoy buddaviy adabiyotidagi buddaviy olimlarga oid ma'lumotlar Buddaviylikning Markaziy Osiyoning bu qismida yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Topilgan qo'lyozmalar va bitiklarda ifodalangan tillarga qisqa nazar tashlashning o'ziyoq Markaziy Osiyoda turli ta'sirlarning mavjudligini, shuningdek, bu hududning qabul qiluvchi va tarqatuvchi markaz sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Markaziy Osiyoda buddaviylikning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari mintaqaning siyosiy tarixiy jarayonlari bilan bog'liq holda kechgan bo'lib, u turli davrlarda hukmronlik qilgan kuchlar — xususan Kushonlar davlati, keyinchalik Xitoy Tang sulolasi, Tibet imperiyasi hamda Turfon va Qocho uyg'ur xonliklarining tarkibiy qismi hisoblangan.

Ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Markaziy Osiyodagi buddaviy yodgorliklarning eng katta qismi Baqtriya-Toharistonga to'g'ri keladi. Bu tarixiy-madaniy mintaqa hozirgi kunda O'zbekistonning janubiy qismi, Tojikistonning katta qismi va Afg'onistonning shimolini qamrab oladi. Arxeologik yodgorliklar masalan, Termiz, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Karatepa, Bezeklik va Qocho majmualari — buddaviylikning Markaziy Osiyodagi yuksak rivoj darajasini ko'rsatibgina qolmay, bu mintaqaning markaz sifatida muhim ahamiyat kasb etganini ham ko'rsatadi. Nafaqat arxeologik yodgorliklar balki, topilgan qo'lyozmalardan shu ma'lum bo'ladiki, Markaziy Osiyodagi buddaviylik tarixi diniy-ma'naviy hodisa bo'lishdan tashqari, mintaqaning geosiyosiy markazi, madaniy sintez jarayonlarining asosiy bo'g'ini sifatida alohida ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi. Buddaviylik eramizdan avvalgi V asrlar atrofida Hindiston yarimoroli hududida paydo bo'lgan. U hozirgi Nepal hududiga to'g'ri keladigan Hindistonning shimoli-sharqiy qismida vujudga kelgan bo'lib, Siddhartha Gautama — Budda, ya'ni “Ma'rifat topgan/Uyg'ongan zot” ning ta'limotlariga asoslanadi. Buddaviylik Hinduizm va Hindiston yarimorolidan ildiz olgan boshqa dinlar bilan tarixiy aloqaga ega. Buddaviylik o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda boshqa dinlar bilan ba'zi jihatlarini o'xshash bo'lib, bu dinlarning barchasining ildizi

Hindiston hududining tarixiy, ijtimoiy, madaniy holatidan kelib chiqqan holatida shakllangan edi.

Buddizmning o'zida ham ma'rifat haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, ayrim yo'nalishlarda ma'rifat deganda insonning o'zini azobdan xalos qilishni chetga surishi, o'z yutuqlarini ham qurbon qilishi orqali boshqalarga xizmat qilish tushuniladi. Ammo, aslida, o'zi azobdan xalos bo'lmagan odam boshqani azobdan ozod qila olmaydi; o'zi johillikdan qutulmagan odam boshqasini johillikdan qutqara olmaydi. Chunki insonning boshqalar bilan munosabati o'zining ichki nuqsonlari, johilligi va kirdikorlari ta'sirida shakllanadi — natijada u ham yaxshi, ham yomon bo'lishi mumkin. Shu sababli, agar Budda qilganidek haqiqiy ma'rifat yo'lini tutmas ekan, dunyo doimiy ravishda yaxshilik va yomonlik o'rtasida tebranishda davom etadi.

Ma'rifat (Enlightenment) — bu haqiqatni iloji boricha eng tiniq idrok qilishdir. Shu bois u bizning kundalik voqelik tajribamiz bilan bevosita bog'liq; u qandaydir sirli, uzoq yoki tushunarsiz narsa emas. Ongning ravshanligi mukammal darajaga yetganda, u bizni azobdan xalos qilish qudratiga ega bo'ladi. U bizni To'rt Ulug' Haqiqat bilan mukammal uyg'unlikdagi idrok lahzasiga olib boradi.

1. Azobning mohiyatini to'liq anglash,
2. Azobning kelib chiqish sababini tark etish,
3. Natijada azobdan ozod bo'lish,
4. Ozodlikka eltuvchi yo'lni rivojlantirish.

Budda ma'rifati (enlightenment) haqida so'z borganda, odatda ikki omil nazarda tutiladi:

Birinchidan, Buddaning ushbu haqiqatni boshqalarga tushuntirish va ta'lim berish qobiliyati; ikkinchidan, uning ushbu haqiqatni o'z shaxsida bevosita idrok etishi va amalga oshirishi. Budda ma'rifatga erishganida, u azob-uqubatdan (dukkha) butunlay ozod bo'ldi. Shu bilan birga, u erishilgan holatning mohiyatini ham chuqur anglab yetdi. Aynan shu sababli Buddaga ergashuvchi shaxs bilan Budda maqomiga ko'tarilgan shaxs o'rtasidagi tafovut haqida so'z yuritiladi. Odatda insonlar Buddaga ergashadilar: ular uning ta'limotiga binoan amaliyotni o'z zimmlariga oladilar. Budda tomonidan To'rt Ulug' Haqiqat va Sakkizlik Ezgu Yo'l ta'limoti ishlab chiqilgan va biz ushbu ta'limot asosida amal qilamiz. Biroq amaliyotni bajarayotgan shaxslarning o'zlari uni tizimli ravishda sharhlash yoki boshqalarga mukammal tarzda izohlash qobiliyatiga ega bo'lavermaydilar.”

Buddaviylikda “Ma'rifat” tushunchasi dinning asosi, ya'ni haqiqatga erishish sifatida, ruhiy kamolotning cho'qqisi, borliqning asl mohiyatini anglatuvchi tushuncha sifatida qo'llangan. Ushbu tushuncha gnoseologik jihatdan, bilishning eng oliy darajasi hisoblanib,

mutlaq haqiqatni anglash va ruhning eng oliy darajasini bildiruvchi konseptual asos sifatida talqin qilingan.

Buddaviylar Shakyamuni Buddha eng oliy darajadagi uygʻonish — toʻla maʼrifat (sammāsambodhi; S: samyaksambodhi) darajasiga erishganini tan oladilar. “Enlightenment” (maʼrifat) atamasi bodhi soʻzidan tarjima qilingan boʻlib, u samsara — yaʼni tugʻilish va oʻlim aylanishidan xalos boʻlish (vimoksha) tajribasini oʻzgartiruvchi mukammal bilimni anglatadi.

“Budh” soʻzining ildizi “uygʻonmoq” yoki “ochilmoq” (xuddi gulning ochilishi kabi) degan maʼnoni bildiradi. Bu — johillik uyqusidan uygʻongan va ongini barcha bilim obyektlarini qamrab oladigan darajada ochgan zotdir. “Budda” atamasi qadimgi Hindistonda koʻplab ruhiy oqimlar tomonidan ishlatilgan boʻlsa-da, u eng koʻp tarixiy Shakyamuni Buddha bilan bogʻlanadi.

Tahlil va xulosalar. Buddaning maʼrifatga erishishida koʻplab omillar rol oʻynagan. Satipatthāna Suttada bu yoʻl “ekāyano maggo” deb nomlanib, u Nirvanaga eltuvchi yagona yoki toʻgʻri yoʻl deb tarjima qilinadi; bu esa amaliyotning asosi boʻlgan “hushyorlik (mindfulness)”ni anglatadi. Vetterga koʻra, Buddha meditatsiya amaliyoti orqali Toʻrt ulugʻ haqiqatni kashf etish yoʻli bilan maʼrifatga erishgan. Buddha soʻzi, nafaqat dinning asoschisi sifatida balki maʼrifatga erishgan, borliq haqiqatlariga erishgan, ruhiy jihatdan oliy va mukammal boʻlgan kishining timsoli hisoblangan. Shu jihatdan, Buddha maʼrifat va maʼrifatni targʻib etuvchi timsol sifatida ham gavdalanadi.

Har bir mavjudot aslida maʼrifatga erishish (uygʻonish) salohiyatiga ega, biroq qoplangan. Oʻzgarish yoʻli — aynan shu uchta zaharni asta-sekin oʻzgartirish, yaʼni ularni ijobiy sifatlarga aylantirish orqali Buddha-tabiyatning namoyon boʻlishiga yoʻl ochishdir. Bu bosqichma-bosqich oʻzgarish jarayoni Buddaviy anʼanadagi hayot gʻildiragi (bhavacakra) tasvirida ham aks ettirilgan.

Buddaviylikning yana bir oʻziga xos jihatlaridan biri bu oʻzining axloqiy va falsafiy qadriyatlari bilan, maʼrifat tizimlari bilan keyingi har bir paydo boʻlgan dinlar rivojlanishiga asos boʻlgan. Shu tarzda buddaviylik, faqatgina diniy tizim sifatida emas, balki inson tafakkurini, maʼnaviy kamolotini, maʼrifat poydevorini shakllanishida ham beqiyos oʻrin egallaydi.

Yevropalik ziyolilar XVIII asrning oxirlarida “Maʼrifat (enlightenment) nima?” degan savol atrofida yuksak darajadagi, ommaviy bahs-munozaralarga kirishganlarida, bu savolga buddaviy javoblar umuman muhokamaga olinmagan. Va shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu bahslarda ishtirok etgan hech kim bu “sharqona” dinning “maʼrifat” tushunchasiga hatto eng uzoqdan boʻlsa ham aloqasi borligiga ishonmagan, bunga ishonishi ham mumkin emasdi.

Garchi o'sha davrda turli Yevropa imperiyalari tomonidan Osiyoga yuborilgan savdogarlar, missionerlar va askarlar orqali Buddizm haqidagi ma'lumotlar Yevropada asta-sekin to'planayotgan bo'lsa-da, ular "Buddizm" haqida bilgan narsa shundan iborat ediki — bu zohidona, monastik dinning asosiy maqsadi nihilistik bo'lib, uning markaziy g'oyasi nirvana, ya'ni Yevropa tillarida "yo'qlik" deb talqin qilingan holat edi.

Bunga qarama-qarshi tarzda, Immanuil Kantning ta'sirli talqinida "ma'rifat" shaxslar va jamoalarning o'z hayotlaridagi muhim qarorlarni ruhoniylar yoki hukmdorlarga topshirmasdan, o'zlari mustaqil fikr yurita olishga jur'at topgan "yetuklik" holati sifatida tushuntirilgan edi. Shunday ekan, Yevropalik ziyolilarga ko'ra, Buddaning ta'limotlari insoniy hayotni inkor etish va undan o'tib ketishga qaratilgandek ko'ringan bo'lsa, zamonaviylikning "ma'rifati" esa an'anaviy dinlarga xos bo'lgan zohidona dunyo-inkorni rad etib, bu dunyodagi insoniy hayotni ozod va ijobiy tasdiqlashga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buddhism: A Supplemental Resource for Grade 12 World of Religions: A Canadian Perspective.
2. To'lanboyeva Q. Hindistonda buddaviylik diniy-falsafiy ta'limotida borliq masalalarini qo'yilishi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.
3. Elboyev F. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. B.385
4. Puri N.B. buddhism in central asia. Delhi. 1996.
5. Литвинский, Б. А., Зеймаль, Т. И. Буддийский монастырь Аджина-тепа (Таджикистан): Раскопки. Архитектура. Искусство / Б. А. Литвинский, Т. И. Зеймаль; под ред. Т. К. Мкртычева. 3-е изд., испр. и доп. — СПб.: Нестор-История, 2010.
6. Buddhism: A Supplemental Resource for Grade 12 World of Religions: A Canadian Perspective.
7. Ask a monk series. Yuttadhammo Bhikkhu.
8. Lamirin, Junaidi, Haudi. The Concept of Enlightenment According to the Buddhist Wheel of Life. Budapest International Research and Critics Institute.
9. Dale.S.W. What Is Buddhist Enlightenment? Oxford University Press.